



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

G'AFUR G'ULOM NASRIY MEROSINING JANRIY RANG-BARANGLIGI VA ICHKI RIVOJI

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi
Naimova Ozoda Qudrat qizi*

Annotatsiya : G'afur G'ulom nasriy merosini o'rganish, asarlardagi huquqiy muammolarni ko'rsatib berish hamda ularga yechim topish. G'afur Gulomning qaysi asarini o'rgamaylik, o'qimaylik unda tran ma'no borligini bilib olamiz. Adibning asarlari huquqiy jihatdan, erkinlik jihatdan ma'lum ma'noda to'la ochib berilgan asarlar hisoblanadi.

Kalit so'zlar : afandi, azroil, tabiblik, Hasan Kayfiy , xizr, navkarlik, dastro'molcha, rasm.

G'afur G'ulomning ijodiy merosi turli yo'nalishlarda yozilganligi barchamizga ma'lum. Uning qaysi yo'nalishdagi ijodini ko'rsak ham , asarlaridagi badiiylik, hallolik, mehnatsevarlik, poklik, mehr-muhabbat kabi yaxshi xislatlarni topishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda G'afur G'ulomning hayoti va ijodini o'rganib borayotgan adabiyotshunos olilar soni ko'paymoqda.

Bular orasida professor Homil Yoqubovning G'afur G'ulom hayoti va ijodini tadqiq etuvchi adabiy-tanqidiy ocherki ayniqsa, diqqatga sazovordir. Atoqli o'zbek shoiri o'zi yashagan davr voqeligidan hayotiga mazmun olib, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirgan qalamkash sifatida o'rganiladi. Garchi olim G'afur G'ulomning o'ttiz besh yillik ijodiy yo'lini siyosiy-mafkuraviy nuqtai nazardan tahlil etsa ham, uning ichki takomilini kuzatish, asarlari poetik tili va xalqchilligini aniqlash, istiqbol rejalarini pragnoz qilishga ham harakat qilgan edi. Keyinchalik bu o'rganishlarga akademik Salohiddin Mamajonov ham G'afur G'ulom ijodini o'rganishga barakali hissa qo'shdi. Uning "Shoir va zamonaviylik" , "G'afur G'ulom prozasi" , "Uslub jilolari" kabi yirik monografik tadqiqotlarida shoir ijodi g'oyaviylik bilan bir qatorda, badiiy barkamollik talablaridan ham tadqiq etildi. G'afur G'ulom she'riyati siyosiy-falsafiy ruhiy, ko'tarinki pafosi, hozirjavob va dolzarbliji, xalqchilligi va gumanizmi jihatidan qadrlandi. G'.G'ulom ijodi:

- a) mumtoz folklor;
- b) Sharq she'riyati;
- c) rus adabiyoti

kabi uch ildizdan oziqlanishi aniqlanib, shu asosda tahlil qilindi. Uning qirq yillik ijodiy yo'lini kuzatgan adabiyotshunos G'afur G'ulomni "o'zbek poeziyasining oqsoqoli," - deb ta'rifladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Buyuk iste'dod sohibi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, faylasuf shoir, nosir G'afur G'ulom xalqimiz va butun ezgu niyatli xalqning qalbiga quloq tuta olgan, ularning dardini dildan his eta bilgan olim, shoir va yozuvchi hamda akademik edi. G'afur G'ulom ijodiy merosining eng ko'p qismini nasriy asarlari, ayniqsa qissalari tashkil etadi. Uning mashhur qissalari "Yodgor", "Netay" hamda barchamiz uchun ma'lum va mashhur bo'lgan "Shum bola" qissasi hisoblanadi. G'afur G'ulomning ushbu qissalarni davr va shaxs talqini nuqtai nazaridan o'rganish yoshlar tarbiyasi, madaniy merosga munosabatini shakllantirish, XX asr vaqeligining badiiy talqinlarini yangicha qarashlar asosida o'rganish negizida estetik bilimini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, "... biz hali yurtimizni, uning o'ziga xos tarixi, madaniyati, ulug' olimu ulamolarini, beba ho ma'naviy merosimizni to'liq o'rganganimiz yo'q". G'afur G'ulom hayoti, ijodiy merosining qimmati, qadri doimo adabiyotshunoslik va tanqidchilikning diqqat markazida bo'lib kelgan. Hozirgacha mustaqilligimizni mustahkamlash, zamondoshimiz badiiy estetik didini o'stirishga xizmat qilib kelmoqda.

Xalq ijodining g'oyaviy-estetik an'analaridan juda keng ko'lama va chuqr ijodiy o'rgangan so'z ustasi G'afur G'ulom hayoti va ijodi uchun folklor juda katta ahamiyatga molik bo'lgan buyuk mакtab vazifasini o'tagan. G'afur G'ulom xalq hayoti va orzu-tilaklarini, uning ruhiy olami, xarakteri, ma'naviyati, estetik didi va badiiy tafakkuri, boy tilini barchasini folkloridan o'qib o'rganganligi aytib o'tilgan. Adabiyotlarda keltirilishicha Nasriddin Afandi fazilatlarining ko'pginasi uning o'ziga singib ham ketgan ekan. Bunga misol qilib, quyidagi holatni keltirishimiz mumkin. Shoirning «Bizning uyga qo'nib o'ting, Do'stlarim» she'rida: «G'afur degan bir Nasriddin kitobi» deb, o'z xarakterini ochib beradi. G'afur G'ulom shaxsiyati va ijodiy merosida xalq ijodi ta'sirining nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarini topish mumkin: bularga misol qilib, «Afandi o'lmaydigan bo'ldi», «Hasan Kayfiy» hikoyasi folklorqa qiyoslab yozilgan. «Tirilgan murda» qissasi folklor motivi, xalq ijodi obrazlariga xos xususiyatlar asosida bayon qilingan. "Tirilgan murda" asaridagi Mulla Mamajon xarakteri mohiyati folklor negizda yozilganini ko'rishimiz mumkin. Adibning boshqa asarlariga murojaat qiladigan bo'lsak, uning "Shum bola" qissasidagi sarguzashtlar folklor janriga borib tutashadi. G'afur G'ulom "Shum bola" qissasini «Uch yolg'ondan qirq yolg'on» ertagiga o'xshagan hamda juda qiziq kulgili hlatni ochib bergen. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida rivoyaning shaxsning tilidan hikoya qilish usulini qo'llagani, qissaning o'ziga xos badiiy chiroy bergen desak mubolag'a bo'lmaydi. Agar qissa G'afur G'ulomning o'z tilidan olib borilganida, undagi ayrim epizodlar kitobxonda shubha uyg'otishi, ishonchsizlik qo'zg'ashi mumkin edi. Pesonaj – shum bola tilidan olib borilganida esa, biroz orttirilgandek ko'ringan o'rinalar hikoyachining fe'liga yo'yiladi. Uning xarakter xususiyatlarini yorqinroq ko'rsatishga xizmat qiladi. «Yodgor» qissasi ham folklor janriga xos tarzda yozilgan. Adibning bu qissada ham latifa, dostonchilik, qiziqchilikka xos



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

xususiyatlar va shu bilan birgalikda asar orqasida yashiringan satira va yumorni olib bergan. Muhimi, xalq, ijodi G'afur G'ulom nasrida beg'araz hazil-mutoyiba va qahramonlik, hayotbaxshlik, donishmandlik ruhini yanada kuchaytirgan. Adib hatto o'nlab fel'etonlarini Nasriddin Afandi latifalari syujeti, shakli asosiga ko'rgan va shu yo'l bilan ularni hatto satirik hikoya darajasiga ko'tarib yuborgan. «Xotinga olib berilmagan kavsh», «Oyoq olishiga qaraydi», «Shudgorda quyruq... singari asarlar fikrimizni isbotlab beradi. Shuning uchun G'afur G'ulomning kuldirib yig'latadigan va yig'latib kuldiradigan hajviy hikoya va qissalari el orasida shuhrat topdi. U o'zbek realistik hikoyachiligi hamda qissachiligiga beqiyos hissa qo'shgan adiblardan biri bo'ldi va umrining oxirigacha bu sohada muvaffaqiyatli qalam tebratdi. G'afur G'ulomning hikoyanavisligi «Jo'rabo'za», «Yigit» ,«Kulgi hikoyalari» kabi to'plamlarida yorqin namoyon bo'ldi. Uning dastlabki asarlarida o'z davrining o'zbek hikoyachiligidagi tavsifchilik publitsistik tadqiqqa ruju qo'yish, konfliktni yuridik tarzda hal etishga moyillik kabi kamchiliklar kuzga tashlanadi . Bunga misol qilib, quyidagi sarlarni olishimiz mumkin. «Arkning yemirilishi», «Ikki janggoh». Adibning ko'pgina satirik hikoyalarda syujetning qiziqarli bo'lishiga, undagi real ma'noni olib berishga harakat qilingan. «Hiylai shar'iy» hikoyasi latifani eslatadi, unda o'zi aytganidek, «kuldirib yig'latadi, yig'latib kuldiradi». «Yigit» hikoyasida muqaddas muxabbat tuyg'usi bilan o'ynagan yigitni chiroqli usulda fosh etadi. Qoloqlikni kulgi qiluvchi «Kim aybdor», «To'rt xangoma» humoristik hikoyalari ham latifanamodir. Masalan, «To'rt xangoma»dagi ikkinchi xangomani eslaylik. Qovulnazar pulini omonat cassaga qo'ymay, bir parcha guldor satingga o'rab xazonning ichiga berkitib qo'yadi. Bir kuni sigirining og'zida o'sha tugunchani ko'rib qoladi. Sigir yutishga urinadi, Qovulnazar sug'urib olish uchun chiranadi, oxiri sigir yutib yuboradi. Qovulnazar xayron, birov sigirni suyib qornidan pulingni ol, desa, boshqasi kavsh qaytarishini kut, extimol, chiqarib yuborar, deb maslahat beradi. Birovning gapi bilan sigirni bozorga olib boradi va jig'ildonida uch yarim ming sulkavoy ham bor, deb yigirma ikki barobar ortiq narx qo'yib sotishga urinadi. Asardan ko'rindiki, yozuvchi qahramonni kulgili vaziyatga tushirib qo'yib, kulgi yaratadi va uning qoloqligidan kuladi. G'afur G'ulom ko'pgina lirik-dramatik yo'nalishdagi hikoyalari ham yozdi. Ularda inson fojiasini va ularni shu holga solgan muhit, sharoitni ko'rsatdi. Endi G'afur G'ulom ijodining yuragi bo'lmish insonparvarlik ruhi baland jaranglaydi. Bunga misol qilib adibning "Hasan Kayfiy" hikoyasini keltirishimiz mumkin. Asarda mehnatkash, pok, halol, o'z aql-farosati, o'zining peshona teri bilan kun kechiruvchi va hayotni, jamiyatni mukammal qilishga intilgan insonni himoya qildi, uning taqdiri, buguni va ertasi uchun san'atkorlik qalbi bilan umr bo'yi kurash olib bordi.

G'afur G'ulomning qaysi yo'nalishdagi ijodiy mahsulini o'rganmaylik, adib asarlarida bizning hayotimiz uchun muhim bo'lgan voqealarga duch kelamiz.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'afur G'ulom . Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.- T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2012- y. 352-bet.
2. G'afur G'ulomning badiiy mahorati: Ilmiy maqolalar to'plami/Nashr.tayyorl. N.Bozorova, T. Matyoqubova . – Toshkent : Toshkent davlat yuridik universiteti , 2021.-240b.
3. G'afur G'ulom xotiralarda : to'plam/ Nashrga tayyorlovchilar : N.Ramazonov, L.Ilhomjonov. O'zR Adliya vazirligi , TDYU.-Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.-208b